

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish usullari

Diyora Rasuljonovna Nabiyeva
diyoranabieva1@gmail.com
Jizzax davlat pedagogika instituti

Annotasiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishning hozirgi kundagi dolzarb masala hisoblanishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: jamiyat, muvaffaqiyat, multimediya, sifatli ta'lim, ehtiyoj, dars, atama, ko'nikma, mustaqil fikr.

Effective use of information and communication technologies by primary school teachers

Diyora Rasuljonovna Nabiyeva
diyoranabieva1@gmail.com
Jizzakh State Pedagogical Institute

Abstract: This article discusses the current issues of effective use of information and communication technologies by primary school teachers.

Keywords: society, success, multimedia, quality education, need, lesson, term, skill, independent thinking.

Ta'lim-tarbiya jarayonini zamonaviy talablarga mos ravishda tashkil etish maqsadida faoliyat olib borayotgan boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kompetentligini oshirish maqsadida juda ko'p ishlar olib borilmoqda.

Ta'lim oluvchilar uchun mustaqil bilim olish imkoniyatlarini o'stirish, ta'limning elektron axborot resurslarini shakllantirish va rivojlantirish uchun tegishli sharoitlarni yaratish ta'lim mazmunini takomillashtirishning zaruriy sharoitlaridan biri sanaladi. Zamonaviy ta'lim tizimining asosini sifatli va yuqori texnologiyali muhit tashkil etadi. Uning yaratilishi va rivojlanishi texnik jihatdan murakkab, ammo bunday muhit ta'lim tizimini takomillashtirishga, ta'lim jarayoniga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga xizmat qiladi. Bugungi kunda ilm-fan jadal taraqqiy etayotgan, zamonaviy axborot vositalari keng joriy etilgan jamiyatda barcha fan sohalarida bilimlarning tez yangilanib borishi, ta'lim oluvchilar oldiga ularni tez va sifatli egallash bilan bir qatorda, muntazam va mustaqil ravishda bilimlarni egallash

vazifasini qo‘ymoqda. Bu vazifani amalga oshirishda o‘qitishning to‘rtta metodidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bular;

- tushuntirish illyustratsiyalash;
- reproduktiv;
- muammoli;
- tadqiqotchilik.¹

Bugungi kunda shiddat bilan o‘zgarib borayotgan hayot oldimizga qo‘yayotgan bir-biridan murakkab va muhim masalalarni hal qilish haqida o‘ylar ekanmiz, ularning yechimi aynan ta‘lim-tarbiya bilan, yoshlarning dunyoqarashini zamonaviy bilim, yuksak ma‘naviyat va ma‘rifat asosida shakllantirish bilan bog‘liq ekaniga yana bir bor ishonch hosil qilamiz.²

Mamlakatimizning ta‘lim tizimida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar ilg‘or xorijiy ta‘lim tajribasini o‘rganish, tahlil etish hamda ta‘lim muassasalari sharoitiga moslashtirishning ijtimoiy-pedagogik, didaktik xususiyatlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bugungi kunda yangi axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llab boshlang‘ich fanlarini o‘qitish, shu bilan birga, ta‘lim oluvchilarni ularning murakkab olamiga olib kirish va axborot madaniyatini shakllantirishga qobilyatli o‘qituvchilarni tayyorlash dolzarb masalalardan hisoblanadi. Ular o‘quvchilar psixologiyasini yaxshi bilishi, o‘qitishning metodik uslublariga ega bo‘lishi va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini yaxshi egallagan bo‘lishi kerak. O‘qituvchining kasbiy fazilatlarini ko‘p jihatdan ularning o‘z faoliyatida yangi usullar, metodlar, axborot kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan bilimlardan foydalanishga tayyorligi va ta‘lim samaradorligini oshirish uchun ularni o‘z kasbiy tajribasi bilan uyg‘unlashtirishga bog‘liq.³

AKTdan foydalanilganda ta‘limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni amalga oshirish oson bo‘lib qoladi. Dars jarayonida tayyor multimediyali mahsulotlari va kompyuter ta‘limi dasturlaridan, o‘quv va sinfdan tashqari ishlarda internet tarmog‘i vositalaridan foydalanib, ta‘lim dasturlari va taqdimotlar, loyihalar yaratish kerak. Axborot texnologiyalarini barcha o‘quv fanlarda qo‘llash mumkin. Darslarda o‘quv va o‘yin dasturlaridan foydalanishga bog‘liq. Ona tili va rus tili darslarida savodxonlikni oshirish bo‘yicha mashqlar yordam beradi, bunda bolalar kompyuterlarda turli xildagi amaliy topshiriqlarni bajaradilar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun turli didaktik materiallar to‘plamidan foydalanib, ko‘rgazmali-mashq, nazorat-mashqlari va test sinovlari modullari kiritilgan aralash kompyuter dasturlarini tayyorlash mumkin. Unga fanga oid qoidalarni joriy o‘rganish va umumlashtirilgan takrorlash uchun uchta

¹ R.A.Mavlonova va boshqalar. Umumiy pedagogika. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta Maxsus Ta‘lim Vazirligi. Toshkent 2018. 189-sahifa.


² Shavkat Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Toshkent - «O‘zbekiston»-2018. 282-sahifa.

³ Zamonaviy ta‘lim №6 (91) 2020

variantlarda berilgan grammatika-orfografik mavzular bo'yicha boy va turli-tuman materiallardan foydalanish yaxshi samara beradi.

1-sinfda o'qish darsida elektron o'quv qo'llanmalari tayyorlab, foydalanish mumkin. Unda so'zni tovushli-harfli tahlil qilish, so'zning bo'g'inlar tuzilishi, ba'zi orfogrammalar o'rganilishi turli qiziqarli ko'rgazmali va ovozli material berish mumkin.⁴

Darsga zamonaviy yondashish.




1-chizma.

1-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligida G'alati ziyofat rasmi ertagini ovozli hikoya qilish orqali o'quvchilar ongiga mavzuni tushunarli qilib singdiramiz. Har bir qahramonni ovozini eshittirib; qaysi hayvonligi, qayerda yashashini, rangini, nimalar bilan oziqlanishini o'quvchilardan so'rab mustaqil fikrlashga o'rgatish mumkin. Tabiat fani bilan bog'lab, savol-javob qilish mumkin, bu bolalarni darsga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi.

Savollarga o'quvchilar javob topib, doskaga chiqib diagrammani to'ldiradi. Quyvon qayerda yashaydi, nimalar bilan oziqlanadi va tabiatda qanday rangda uchraydi? Yumronqoziq haqida nimalar bilasiz? Tipratikan qayerda yashaydi va nimalar bilan oziqlanadi?

⁴ INFOCOM.UZ. 30 10 2012. Sharh va fikr-mulohazalar. Mashhura Muhammadjonova.



2-chizma

Shu bilan bir qatorda, teatr ko‘rinishida ham o‘tish mumkin. Qahromonlarni rasmini chizib, quyovni uyi oldiga olib kelamiz va o‘quvchilarga hikoya qilish orqali davom ettiramiz. Rasmlarni tartib bilan harakatlantirib ertakni tushuntiramiz. Qahramonlar haqida tushuncha berib, ularning qilgan ishlari va o‘zini tutishi haqida o‘quvchilardan so‘rab mustaqil fikrlarini bilib olamiz va dars davomida baholab ketamiz. Shu o‘rinda dars davomida ko‘cha odobi, mehmonga borish odobi haqida suhbatlashamiz. Do‘stlik haqida maqollar aytamiz, uyda yana bilib kelishlarini so‘raymiz.

AKTdan matematika darslarida foydalanish ham mumkin. Mavzuga oid turli qiziqarli slaydlar, animatsion rasmlar masalalar tuzish mumkin. Bu o‘quvchilarni ham diqqatini jalb qiladi, ham qiziqishini oshiradi. Bunday usullar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘yin orqali darsni yaxshi tushunishlariga katta yordam beradi.

Ta‘lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarni aqlan va ruhan yetuk insonlar qilib tarbiyalashda milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz mohiyati bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishda ularda buyuk ajdodlarimizning boy ma‘naviy meroslarini o‘rganishda kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish muhim rol o‘ynaydi.⁵

Darhaqiqat, biz ham bu fikrga qo‘shilgan holda, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari dars jarayonida axborot texnologiyalaridan kerakli ma‘lumotlarni olishi, o‘rganishi, qayta ishlashi va mavzuga moslab yangi interfaol usullar, zamonaviy vositalar ya‘ni axborot texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda o‘tkazadi.

⁵ WWW.OPENSOURCE.UZ. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC jurnal Isamatova Shahnoza.

Milliy urf-odatlarimizni o'quvchilar ongiga yaxshiroq singdirish, ularga amal qilish va hayotda duch keladigan to'siqlarni oqilona yengib o'tishda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'rni beqiyos. 3-sinf o'qish kitobida Do'stlik hikoyasi bor.

Dars jarayonida pedagog slaydli ko'rgazma orqali hikoyani yoritib berishi mumkin. Rus millatiga mansub Vova ismli bola bilan Abduqodirning do'stligi slayd orqali o'quvchilar ongiga qiziqarli va ham hayojonli tarzda yetib boradi. Xat yozish odobi va nafaqat yaqin do'st tutinish qo'shni davlatlarda ham xat, internet aloqa vositalari orqali bog'lanib aloqa qilish mumkinligini o'qituvchi o'quvchilarga yetkazib beradi. Boshqa fanlar bilan bog'lab rasmlar multimediyalar tayyorlash mumkin. Misol uchun, quyvon haqida gapirib tabiatga bog'lab, quyvonlarni, o'rmonni rasmini ko'rsatib, ularni asrash daraxtlarni noyob turlarini aytib rasmlarini ko'rsatamiz.

Barcha o'quv mashg'ulotlarida komyuter yordamida testlar tuzish, o'zlari tushunib yechishlari kerak. Bunda o'quvchining o'zi mustaqil fikr yuritishga va o'zi tanlagan javobni sharhlashga, tushuntirishga urinadi. Bu orqali o'qituvchi darsni yorqinroq, ta'lim sifatini esa jadallashishiga erishamiz.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanib borayotgan davrda o'qituvchi ham rivojlanib, o'sib borishi va darsni samaradorligi, sifatligi, qiziqarliligi va albatta har bir darsni yangi usullar bilan tushuntirib boriladi. Ta'lim jarayonini to'g'ri va samarali tashkil qilishda innovatsion texnologiyalar zamonaviy kompyuter vositalarining o'rni beqiyos albatta. O'quv mashg'ulotlarida multimediya, slayd, animatsiya, grafika, qisqa film va boshqa metodlar darsni yanada qiziqarli bo'lishiga yordam beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni aytish joizki, rivojlanib, yuksalib, ilgari borayotgan zamonda boshlang'ich sinf o'qituvchilari ham zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib, o'quvchilarni yanada teran fikrlaydigan, hayotga o'z qarashlari bilan mustaqil fikrlashga ega bo'lgan buyuk insonlarni tarbiyalashimiz kerak. Pedagog, albatta, har tomonlama rivojlangan intellektga ega, zukko, dono, fidoiy, fan asoslarini chuqur egallagan, ma'rifatli va madaniyatli inson bo'lishi kerak albatta.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.A.Mavlonova va boshqalar. Umumiy pedagogika. O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligi. Toshkent 2018. 189-sahifa.
2. Shavkat Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Toshkent - «O'zbekiston»-2018. 282-sahifa.
3. Zamonaviy ta'lim №6 (91) 2020.
4. INFOCOM.UZ. 30 10 2012. Sharh va fikr-mulohazalar. Mashhura Muhammadjonova.

5. WWW.OPENSOURCE.UZ. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC journal Isamatova Shahnoza.

6. Исроилов О. Б. «ПОМИДОР»-МЕТОДИКА, КОТОРАЯ УСКОРЯЕТ ПРОЦЕСС ОБУЧЕНИЯ, ПОВЫШАЕТ КАЧЕСТВО ОБУЧЕНИЯ И САМООБУЧЕНИЯ //Academy. – 2020. – №. 12 (63).